



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№3(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 144 sahifa,
2-mart, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'zbek oilalarida ona-bola munosabatlari va ularning oilaviy emotsional muhitni shakllantirishdagi ahamiyati.....	18
<i>Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna</i>	
O'quvchi yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish – ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida	22
<i>Mirzayeva Faroxat Odiljonovna</i>	
Raqamli muhit ta'sirida bolalar psixikasidagi transformatsiya jarayonlari.....	30
<i>Abdullayeva Sh. H.</i>	
Turli yosh davrlaridagi shaxslarda o'zini o'zi faollashtirish xususiyatlarining tafovutlanishi	33
<i>Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o'g'li</i>	
Bolalarni maktab ta'limiga intellektual tayyorlash va vitagen tajribasini rivojlantirishga metodik yondashuvlar.....	37
<i>Abdullayeva Feruza Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni steam asosida o'qitishning interfaol metodlari	42
<i>Aliqarshiyeva Durdona Sharofiddin qizi</i>	
O'simliklar guruhlari mavzusini o'quvchilarga tushuntirishda interfaol metod va vositalardan foydalanishning samaradorligi.....	49
<i>Dehqonboyev Muhammad To'liqin o'g'li</i>	
Kichik maktab yoshidagi shaxsda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishning pedagogik shartlari	55
<i>Jo'rayev Avazbek Umar o'g'li</i>	
Matematika o'qitish jarayonida o'quvchilarning mantiqiy kompetentligini shakllantirish	59
<i>Kalandarova Maxliyo Aslonovna</i>	
Raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik madaniyatini rivojlantirishda raqamli ta'lim imkoniyatlaridan samarali foydalanish.....	63
<i>Kamalova Dilrom Olimjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'limni rivojlantirish – kelajak avlod kamolotiga qaratilgan strategik islohot.....	68
<i>Kamolova Gavhar Akbarovna</i>	
Axloqiy qadriyatlar asosida milliy ertaklardan foydalanish texnologiyasi.....	71
<i>Kayumova Nargiza Mirziyatievna, Xo'jayeva Sharofat Olimjon qizi</i>	
Insult bilan xastalangan bemorlarda nutq buzilishlari korreksiyasiga yondashuvlar	74
<i>Maxkamova Laylo Majidovna</i>	
Milliy ta'lim tizimini yangilash va rivojlantirishning strategik modeli	77
<i>Mengliqulova Maftuna Abdullayevna</i>	
Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va uning shaxs psixikasiga deterministik ta'siri	82
<i>Nishonova Oydinoy Mashrabjon qizi</i>	
Talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishda o'qituvchining fasilitatorlik roli	86
<i>Sariyeva E'tibor Matchanboyevna, Urazbayeva Sabohat Ortiqbayevna, Yuldasheva Gavxaroy O'rinboy qizi</i>	
Raqamli ta'lim platformalaridan foydalanishning bugungi holati: muammo va imkoniyatlari	90
<i>Suyarov Xurshid Baxriddinovich</i>	
Tarbiya darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish metodikasi.....	95
<i>Toshpo'latova Guldona Tulqin qizi</i>	
Kreativ yondashuvni shakllantirishda o'qituvchining innovatsion faoliyatini shakllantirish metodikasi	98
<i>Usarova Marg'uba Nazar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ nutq malakasini rivojlantirishning metodologik asoslari.....	102
<i>Vaisova Yodgora Sardorbek qizi</i>	
Destruktiv oilalarda shaxslararo munosabat psixologiyasi	106
<i>Sharafutdinova Xadichaxon Gulyamutdinovna</i>	



Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	110
<i>Xalilayev Batirjon Taxirovich</i>	
O'quvchilarning individual ta'lim ehtiyojlarini aniqlash mezonlarining pedagogik va raqamli diagnostik asoslari	114
<i>Xalknazarova Aysuliw Maxsetbaevna</i>	
Klinik integratsiya asosida farmakologiya fanini o'qitish modelini ishlab chiqish	118
<i>Xasanboyeva Nafisaxon Abdullojonovna</i>	
Yurak glikozidlaridan zaharlanishni oldini olishni o'qitishning metodik-pedagogik asoslari	121
<i>Xoliqova Oyistaxon Yuldashevna</i>	
Oliy ta'lim tizimida raqamli transformatsiya sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning universal va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	125
<i>Xurramov Anvar Jumanazarovich</i>	
Studying the Role of Magic Numbers and Nucleon Shells in Nuclear Structure	129
<i>Yakubova Shoxidaxon Qodirovna, Dehqonova Ohista Qosimjonovna</i>	
Методика адаптивного физического воспитания молодежи с интеллектуальными нарушениями посредством специализированных гимнастических упражнений.....	133
<i>Аслонова Гуллола Акрам кизи</i>	
Понятие эмоционально-оценочной лексики.....	137
<i>Каримбаев Ниетбай Шарипович, Усенова Гульзира Женгисбай кызы</i>	
Изучение русского языка с использованием цифровых платформ: потребности, проблемы и решения.....	140
<i>Умарова Дильфуза Маматкуловна</i>	

TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM FAOLIYATINI TASHKIL ETISHDA O'QITUVCHINING FASILITATORLIK ROLI

Sariyeva E'tibor Matchanboyevna

Urganch innovatsion universiteti o'qituvchisi

ORCID: 0009-0007-7196-640X

Urazbayeva Sabohat Ortiqbayevna

Urganch innovatsion universiteti o'qituvchisi

Yuldasheva Gavxaroy O'rinboy qizi

Urganch innovatsion universiteti katta o'qituvchisi
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarida mustaqil ta'limni samarali tashkil etishda fasilitatorlik yondashuvining ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interfaol metodlar, didaktik o'yinlar hamda amaliy mashg'ulotlar asosida talabalarning mustaqil fikrlash, o'z-o'zini boshqarish va refleksiya ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Maqolada tadqiqot metodlari, tajriba-sinov ishlari natijalari va xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim, fasilitatorlik, boshlang'ich ta'lim, interfaol metodlar, didaktik o'yinlar, kompetensiya.

Abstract: This article highlights the significance of the facilitator approach in effectively organizing independent learning for students in the primary education program. The study analyzes modern pedagogical approaches, interactive methods, didactic games, and practical exercises aimed at developing students' skills in independent thinking, self-regulation, and reflection. The article presents research methods, experimental results, and conclusions.

Key words: independent learning, facilitation, primary education, interactive methods, didactic games, competence.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение фасилитаторского подхода при эффективной организации самостоятельного обучения студентов направления начального образования. В исследовании анализируются современные педагогические подходы, интерактивные методы, дидактические игры и практические занятия, направленные на развитие у студентов навыков самостоятельного мышления, самоуправления и рефлексии. В статье представлены методы исследования, результаты экспериментальной работы и выводы.

Ключевые слова: самостоятельное обучение, фасилитаторский подход, начальное образование, интерактивные методы, дидактические игры, компетенция.

KIRISH

XXI asr raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt jadal rivojlanayotgan davr bo'lib, bu jarayon ta'lim tizimida ham tub o'zgarishlarni talab etmoqda. Zamonaviy oliy ta'limda bilim berishdan ko'ra talabanning mustaqil o'rganish, tahlil qilish va xulosa chiqarish kompetensiyalarini shakllantirish ustuvor vazifaga aylanmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarini tayyorlash jarayonida mustaqil ta'limni samarali tashkil etish kelajakdagi pedagogik faoliyat sifatini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Mustaqil ta'lim talabanning o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan ichki ehtiyoji asosida shakllanib, uning ijodiy va tafakkur salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Talabada mustaqil fikrning yuzaga kelishi hamda faol bilim olish jarayoniga jalb etilishi ko'p jihatdan ta'lim jarayonining qanday tashkil etilishiga bog'liq. Shu nuqtayi nazardan, o'qituvchining an'anaviy bilim beruvchi roldan fasilitatorlik, ya'ni yo'naltiruvchi, maslahat beruvchi va ta'lim jarayonini boshqaruvchi rolgacha o'tishi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Fasilitatorlik yondashuvi asosida tashkil etilgan mustaqil ta'lim jarayonida talaba ta'limning markaziy subyekti sifatida namoyon bo'ladi. Bunda faollik, mas'uliyat, individuallik va motivatsiya tamoyillari asosida talabalarning bilim olish ko'nikmalari bosqichma-bosqich rivojlantiriladi. Shu bois mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarida mustaqil ta'limni tashkil etishda fasilitatorlik yondashuvining ahamiyati ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan yoritiladi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hozirgi globallashtirish va raqamlashtirish sharoitida ta'lim tizimi oldiga talabalarda mustaqil o'rganish, tanqidiy fikrlash va ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantirish vazifasi qo'yilmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarini tayyorlash jarayonida mustaqil ta'limni to'g'ri tashkil etish kelajakdagi pedagogik faoliyat sifatini belgilab beradi.

An'anaviy ta'limda o'qituvchi bilim manbai sifatida namoyon bo'lsa, zamonaviy ta'lim jarayonida u fasilitator – ya'ni ta'lim jarayonini tashkil etuvchi, yo'naltiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi shaxs sifatida faoliyat yuritadi. Shu sababli, fasilitatorlik yondashuvi asosida mustaqil ta'limni tashkil etish bugungi kunning dolzarb pedagogik muammolaridan biridir.

Mazkur maqolaning maqsadi – boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarida mustaqil ta'limni tashkil etishda fasilitatorlik yondashuvining nazariy va amaliy jihatlarini ochib berishdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- nazariy tahlil metodi – pedagogik va psixologik adabiyotlarni o'rganish hamda tahlil qilish;
- kuzatish metodi – talabalarning mustaqil ta'lim jarayonidagi faolligini aniqlash;
- suhbat va so'rovnomalar – talabalarning mustaqil ta'limga bo'lgan munosabatini o'rganish;
- "Muammo yechimi" metodi – talabalarga real pedagogik vaziyatlar taqdim etildi va ularni mustaqil tahlil qilish so'raldi;
- "Refleksiya kundaligi" – talabalar har bir mashg'ulotdan so'ng o'z fikr va xulosalarini yozib bordilar.

Tadqiqot Urganch innovatsion universitetining boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabalari ishtirokida olib borildi.

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari uchun "Matematika o'qitish metodikasi" fanidan mustaqil ta'lim topshiriqlarini amalga oshirish ko'rinishlari quyidagilardan iborat: portfel (portfolio) – bu o'quvchi, talaba yoki mutaxassisning o'z faoliyati, yutuqlari, bilimlari va ko'nikmalarini taqdim etuvchi hujjatlar yoki materiallar to'plamidir.

Portfelning tuzilishi:

- muqova sahifasi;
- kirish;
- mavzuga oid nazariy ma'lumotlar;
- amaliy ishlar yoki loyihalar;
- mustaqil izlanishlar va tahlil;
- refleksiya (o'z-o'zini baholash va fikr-mulohaza);
- foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati;
- qo'shimchalar (ilova materiallar, tavsiyalar).

Mini-debat – bu qisqa vaqt ichida o'tkaziladigan, kam ishtirokchi bilan sodda tuzilma asosida tashkil etiladigan bahs-munozara shakli bo'lib, ayniqsa o'quv jarayonida talabalarni faollashtirish, tanqidiy fikrlashni shakllantirish va o'z fikrini asoslab berishga o'rgatishda samarali vositadir.


"Al-Xorazmiy" muzeyiga sayohat dasturi pedagogik va tarbiyaviy jihatdan boy, interfaol, madaniy-ma'rifiy yondashuvlarga asoslangan bo'lib, ayniqsa O'zbekiston tarixi, falsafa va dinlar tarixi fanlari bilan integratsiyalashgan holda amalga oshiriladi. Dastur o'z ichiga quyidagi vazifalarni oladi:

- dastur maqsadi;
- sayohat joyi;
- sayohat jadvali;
- ishtirokchilar uchun zarur anjomlar;
- natijaviy ishlar.

Poster – bu ko'rkam rasm va qisqa matnlar bilan tayyorlangan axborot, targ'ibot yoki taqdimot materiali, ya'ni bir varaqda odamlarning e'tiborini tortadigan muayyan mavzu yoki g'oya haqida tez va aniq ma'lumot beradigan rasmlari va yozuvli ishdir.




1-rasm: Poster namunalari




“Agar men Yevklid davrida yashagan bo'lsam...” mavzusida video rolik tayyorlash topshirig'i Yevklid va Eratosfen yashagan davrning ilmiy muhiti hamda qadimgi yunon matematikasining shakllanish jarayonini yoritishga qaratiladi. Video mazmunida Yevklidning hayoti va ilmiy faoliyati, uning “Elementlar” asari orqali geometriyani aksiomalar va isbotlar asosida tizimlashtirgani bayon etilishi lozim. Shuningdek, Yevklid maktabi va ilmiy jamoasining matematika taraqqiyotidagi o'rni ochib berilishi talab etiladi. Rolikda Eratosfenning ilmiy faoliyati, xususan, Yerning shar shaklida ekanini matematik va astronomik usullar yordamida aniqlagani ko'rsatib beriladi. Bu orqali qadimgi olimlarning ilmiy tafakkuri va tajribaga asoslangan yondashuvi yoritiladi. Video rolikda Yevklid va Eratosfen ilmiy merosining ahamiyati, ularning g'oyalari zamonaviy matematika hamda geometriya fanlari rivojiga asos bo'lgani ta'kidlanishi zarur. Mazmunni tushunarli va ta'sirchan yetkazish maqsadida tarixiy manzaralar, geometrik chizmalar, Yer modeli kabi vizual materiallardan foydalanish tavsiya etiladi. Mazkur topshiriq talabalarda matematika tarixiga qiziqish uyg'otish, ilmiy tafakkurni rivojlantirish va buyuk allo-malarning ilmiy merosiga hurmatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Infografika – bu murakkab ma'lumotlarni vizual (rasmlar, diagrammalar, grafiklar) va matnlar yordamida oddiy hamda tushunarli shaklda taqdim etish usuli bo'lib, u o'quvchilarga mavzuni tez va samarali tushunish imkoniyatini beradi. Infografikalar ma'lumotlarni qisqartirish, muhim jihatlarni ajratib ko'rsatish va diqqatni jalb qilish maqsadida qo'llaniladi.



2-rasm: Pifagor teoremasining infografik ko'rinishi





TAHLIL VA NATIJALAR

Tajriba-sinov ishlari davomida fasilitatorlik yondashuvi asosida tashkil etilgan mustaqil ta'lim mashg'ulotlari talabalarning faolligini sezilarli darajada oshirgani aniqlandi. Xususan, talabalar mustaqil topshiriqlarni bajarishda tashabbuskorlik ko'rsatdilar; muammoli vaziyatlarni hal etishda turli yechimlarni taklif qila oldilar; refleksiya jarayonida o'z faoliyatini tahlil qilish ko'nikmalari rivojlandi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, fasilitatorlik yondashuvi asosida tashkil etilgan mustaqil ta'lim jarayoni talabalarning bilim darajasini oshirish bilan birga, ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga ham sezilarli hissa qo'shadi. Fasilitatorlik yondashuvi talabaning o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan ichki ehtiyojini faollashtiradi, mustaqil fikrni shakllantiradi va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga imkon yaratadi. Shu bilan birga, talabaning o'z qobiliyatlari va bilim olish uslublarini aniqlash hamda individual darajasiga mos ravishda ishlash imkonini beruvchi muhitni yaratadi.

Ushbu yondashuvda o'qituvchi an'anaviy bilim beruvchi sifatidagi roldan tashqariga chiqib, yo'naltiruvchi, maslahat beruvchi va qo'llab-quvvatlovchi sifatida faoliyat yuritadi. Natijada talaba faqat ma'lumot qabul qiluvchi emas, balki ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. Bu esa talabaning mas'uliyat hissi, mantiqiy fikrlash qobiliyati va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari boshqa olimlar tomonidan ilgari surilgan mustaqil ta'lim va talaba markazli yondashuv konsepsiyalari bilan uyg'un ekanligini ko'rsatadi. Bu o'z navbatida fasilitatorlik yondashuvi nafaqat nazariy jihatdan samarali ekanini, balki amaliyotda ham talabalarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita sifatida qo'llanilishini tasdiqlaydi. Shu tariqa, boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarida fasilitatorlik yondashuvi asosida tashkil etilgan mustaqil ta'lim ta'lim sifatini oshirish, shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish hamda pedagogik jarayon samaradorligini ta'minlashda samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarida mustaqil ta'limni samarali tashkil etishda fasilitatorlik yondashuvi muhim pedagogik ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv talabalarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlash va mas'uliyat hissini shakllantirishga xizmat qiladi. Fasilitator o'qituvchi rahbarligida tashkil etilgan mustaqil ta'lim jarayoni talabaning individual imkoniyatlarini namoyon etishi hamda ichki motivatsiyasini kuchaytirishga yordam beradi. Shuningdek, mustaqil ta'limni samarali tashkil etishda interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar, loyiha va refleksiyaga asoslangan topshiriqlardan foydalanish ijobiy natijalar berishi aniqlandi. Bu esa bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishda fasilitatorlik yondashuvini keng joriy etish, professor-o'qituvchilarning ushbu yo'nalishdagi pedagogik mahoratini oshirish hamda baholashning zamonaviy usullarini qo'llash ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1997.
2. Ibragimov X., Abdullayeva Sh. Pedagogika. – Toshkent, 2007.
3. Mavlonova R. va boshqalar. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.
4. Jumayev M. Matematika o'qitish metodikasi (OO'Yu uchun darslik). – Toshkent: "Bayyoz", 2022. – 320 b.
5. Jumayev M. Matematika o'qitish metodikasi (OO'Yu uchun darslik). – Toshkent: "Turon-Iqbol", 2016. – 426 b.
6. Jumayev M., Tadjieva Z. G'. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi (OO'Yu uchun darslik). – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2005.
7. Tadjieva Z. G', Abdullayeva B. S., Jumayev M. Ye., Sidelnikova R. I., Sadikova A. V. Metodika prepodavaniya matematiki. – T.: "Turon-Iqbol", 2011. – 336 s.
8. Xamedova N. A., Sadikova A. V., Laktaeva I. Sh. Matematika. Uchebnoe posobie. – T.: "Jaxon-print", 2007.
9. Ibrohimov R. Matematikadan masalalar to'plami. – T.: "O'qituvchi", 1995.
10. Столярова Л. П. Теоретические основы начального курса математики: учебное пособие. – Москва: "Академия", 2014. – 272 стр.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.